**Emro Science and Education**
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320399

**"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"**

# TURISTIK KORXONALARDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR ASOSIDA XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH

TDIU "Axborot tizimlari va texnologiyalari" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
**SOBIRJONOV MUXIDDIN TOXIRJON O'G'LI**

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot davrida turizm sohasi dunyo miqyosida eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Turizm nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim manbai, balki yangi ish o'rinlari yaratish, mamlakat imijini shakllantirish va xalqaro aloqalarni kengaytirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, turistik korxonalarda innovatsion xizmatlarni joriy etish masalasi hozirgi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Innovatsiyalar turizm sohasining barqaror rivojlanishiga, raqobatbardoshlikni oshirishga va iste'molchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da turizm sohasida zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, innovatsion xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv tizimlarini takomillashtirish masalalariga alohida urg'u berilgan. Bu islohotlarning maqsadi bu – mamlakatda turizmning jozibadorligini oshirish, ichki va tashqi turistlar oqimini ko'paytirish hamda milliy turizm brendini global maydonda mustahkamlashdan iborat [2].

So'nggi yillarda turistik korxonalar faoliyatida innovatsion yondashuvlar tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Xususan, onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar va mijozlar tajribasini tahlil qiluvchi dasturiy vositalar turizm xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Bunday innovatsion texnologiyalar mijozlarning qulayligini ta'minlash, xizmatlar sifati va tezligini oshirish, shuningdek, turistik mahsulotlarni individuallashtirish imkonini beradi. Natijada, turistik korxonalar o'z mijozlariga yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish orqali raqobatdosh ustunlikka ega bo'lmoqda.

Dunyo tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, rivojlangan davlatlar turizm sohasida innovatsion yechimlarni keng tatbiq etish orqali barqaror o'sishni ta'minlamoqda. Masalan, Yevropa davlatlarida "aqlli turizm" konsepsiyasi faol joriy etilmoqda, bunda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, "big data" tahlili va virtual haqiqat (VR) kabi yechimlardan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Ushbu texnologiyalar orqali turistlar nafaqat sayohatni rejalashtirish, balki uni real vaqt rejimida boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Shu jihatdan, O'zbekiston turizm industriyasida ham ushbu tajribalarni o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish zarurati ortib bormoqda. Innovatsion



Published: 05.06.2026

**Cite this article:** Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li (2026). Turistik korxonalarda raqamli innovatsiyalar asosida xizmatlarni rivojlantirish. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320399

*© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

xizmatlarning joriy etilishi turistik korxonalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Chunki innovatsiya – bu faqat texnologik yangilik emas, balki xizmat ko‘rsatish madaniyatini, boshqaruv tizimini va marketing strategiyasini tubdan o‘zgartiruvchi omildir. Masalan, mijozlar bilan ishlashda sun’iy intellektga asoslangan chat-botlardan foydalanish xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqartiradi, xatoliklarni kamaytiradi va mijoz bilan muloqotni yanada shaxsiylashtiradi. Shuningdek, mobil ilovalar orqali turistlarga real vaqt rejimida yo‘nalishlar, ob-havo, transport yoki mehmonxona bandlik holati haqida ma’lumot taqdim etish ularning sayohatini qulay va xavfsiz qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham turistik korxonalarda innovatsion xizmatlarni joriy etish borasida muayyan ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, “Uzbekistan.travel” va “Booking.com” kabi platformalar orqali onlayn bronlash tizimlarining keng qo‘llanilishi, turistik joylar haqida interaktiv ma’lumot beruvchi mobil ilovalar ishlab chiqilishi bu yo‘nalishdagi muhim amaliy natijalardir. Shuningdek, ayrim mehmonxonalar va sayyohlik agentliklari mijozlar uchun onlayn to‘lov, QR-kod orqali xizmat ko‘rsatish, elektron yo‘llanma tizimlarini joriy etmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda turizm sohasida innovatsiyalarni keng tatbiq etishga to‘sqinlik qilayotgan ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali IT-mutaxassislarning yetishmasligi, kichik turistik korxonalarning investitsion imkoniyatlarining cheklanganligi bu jarayonni sekinlashtirmoqda.

Bundan tashqari, ayrim korxonalar innovatsiyalarni joriy etishning iqtisodiy afzalliklarini yetarlicha tushunmayapti yoki bu boradagi tajriba yetishmayapti. Shu sababli, innovatsion xizmatlarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, turizm sohasida raqamli transformatsiya strategiyasini amalga oshirish zarur.

O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining boy tabiiy resurslari, qadimiy tarixiy va me’moriy obidalari hamda zamonaviy taraqqiyoti bilan jahon hamjamiyati e’tiborini tobora ko‘proq o‘ziga qaratmoqda. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Xiva shaharlaridagi tarixiy markazlar, xususan, Xivadagi Ichan qal’a majmuasi YUNESKOning “Butun dunyo merosi” ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ular mamlakatning boy o‘tmishi va madaniy taraqqiyoti haqida bebaho dalolat beradi. Bu hududlarda saqlanib qolgan me’moriy yodgorliklar o‘ziga xos bezaklari, tarixiy ahamiyati va milliy ruhini ifodalovchi ko‘rinishlari bilan ajralib turadi So‘nggi yillarda hukumat tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilib, infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport va mehmonxona xizmatlarini yaxshilash, shuningdek, qonunchilik asoslarini takomillashtirish yo‘nalishida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda [2].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi 40,0 %ni (117 306,2

mlrd so‘m) tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2025- yil yanvar-mart oylari bilan solishtirganda real o‘sish indeksi 118,4 %ni tashkil etdi. Shuningdek, viloyatlar kesimida eng yuqori hajm Samarqand (21 620,4 mlrd so‘m, ya’ni, bozor xizmatlari umumiy hajmining 7,4 %ini egalladi), Farg‘ona (19 803,0 mlrd so‘m, ya’ni 6,7 %), Toshkent (19 767,9 mlrd so‘m, ya’ni 6,7 %) va Namangan viloyatida (14 833,1 mlrd so‘m, ya’ni 5,1 %) kuzatildi. Sirdaryo viloyatida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 913,8 mlrd so‘mni yoki umumiy xizmatlar hajmining 1,3 %ini tashkil etdi [5].

Shu bilan bir qatorda 2026- yilning hisobot davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 22 827,9 mlrd so‘mni tashkil etdi. Mazkur soha tarkibida kompyuter dasturlashtirish xizmatlari eng katta ulushga ega bo‘lib, 46,5 %ni qayd etdi. Shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida telekommunikatsiya xizmatlari ulushi 29,9 %ni, axborot xizmatlari 14,7 %ni, nashriyot xizmatlari 6,6 %ni hamda boshqa xizmatlar 2,3 %ni tashkil etganligini ko’rishimiz mumkin [5].

Yuqorida keltirilgan statistik ma’lumotlardan ham ko’rinib turibdiki turistik korxonalarda innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlari faqat texnologik yangiliklar bilan chegaralanmaydi. Bu jarayon boshqaruv uslublarini modernizatsiya qilish, xodimlarni raqamli ko‘nikmalarga o‘rgatish, xizmatlar paketini moslashuvchan shaklda taklif etish hamda turistlar bilan interaktiv muloqotni yo‘lga qo‘yish orqali ham amalga oshiriladi. Shu sababli, innovatsion xizmatlar joriy etish nafaqat iqtisodiy foyda, balki mamlakatning turistik imijini oshirish, xorijiy sayyohlar oqimini ko‘paytirish va ichki turizmni rivojlantirish uchun ham muhimdir.

Turistik korxonalarda innovatsion xizmatlarni joriy etish imkoniyatlari keng va ko‘p qirrali. Birinchi navbatda, onlayn bron tizimlari va mobil ilovalar turistlar uchun xizmatlardan foydalanishni yengillashtirib, korxonalar uchun esa mijozlar bazasini kengaytirish imkonini beradi. Bu xizmatlar real vaqt rejimida ma’lumot almashish, narxlarni avtomatik yangilash va mijozlar fikrini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining joriy etilishi turistlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif etishga zamin yaratadi. Masalan, chatbotlar yordamida mijozlarga 24 soat davomida tezkor javob berish, buyurtmalarni avtomatik qabul qilish va tahlil asosida tavsiyalar berish mumkin. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari esa sayohat oldidan turistlarga joyni “sinab ko‘rish” imkonini yaratadi [2]. Bu innovatsiyalar marketing samaradorligini oshirib, turistlarning qiziqishini kuchaytiradi.

Umuman olganda, turistik korxonalarda innovatsion xizmatlarni joriy etish O‘zbekiston turizm sohasining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shish imkonini beradi. Shu bois, bu yo‘nalishda ilmiy asoslangan strategiyalar ishlab chiqish, texnologik infratuzilmani takomillashtirish hamda innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi

mexanizmlarni kuchaytirish zarur. Innovatsion xizmatlar turizmni modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishi sifatida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishiga ishonamiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Omonov Sh. Turizmda innovatsion jarayonlar // Journal of Marketing, Business and Management (JMBM). Volume 2, Issue 3 (June), 2024. – ISSN: 2181- 3000. – B. 61–66.

2. Haydarova N.R. Turistik korxonalarda innovatsion xizmatlarni joriy etish imkoniyatlari. “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali | 13-son | 2025.

3. Jabborova Z.A. Turizmda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llabquvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish // Innovatsion texnologiyalar jurnali. Vol. 50, No. 2, 2023. – ISSN 2181-4732. – B. 145–149.

4. Aminov K.O. Turizmni rivojlantirishni innovatsion usullari. // “Science and Education” Scientific Journal. 2023-yil, Yanvar. Volume 4, Issue 1. ISSN 2181-0842.

5. http://www.stat.uz

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti